


## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 18 711,4 mlrd so‘m, (dollar ekvivalentida 1 468,9 mln AQSh doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga o‘sdi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




### 2025- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, *birlikda*

#### Yillar kesimida soni



#### Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,5 % ni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yo‘nalishlari kesimida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

binolar va inshootlar qurilishi – 48,6 %;

fuqarolik obyektlarini qurish – 26,2 %;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi – 25,2 % ni tashkil qildi.

### Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi 2025- yil yanvar-sentabr

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd so‘m	18 711,4	1 334,5	17 376,9
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	832,2	656,9	175,3
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	34,8	-	34,8
korxonalar va aholi mablag‘lari	3 070,1	210,4	2 859,7
chet el investitsiyalari va kreditlari	14 654,5	467,2	14 187,3
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	119,8	-	119,8
Tiklanish va taraqqiyot fondi	-	-	-

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta‘minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.

## Qurilish ishlari 2025- yil yanvar-sentabr

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikro-firmalar	Norasmiy sektor

***Qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi, foiz hisobida***

Jizzax viloyati	5 880,0	765,3	3 507,8	1 606,9
-----------------	---------	-------	---------	---------

1. *Kichik korxonalar va mikrofirmalar.*

2. *Norasmiy sektor.*


3. *Yirik qurilish tashkilotlari.*

shahar:

Jizzax	1 974,3	318,4	1527,3	128,6
--------	---------	-------	--------	-------

tumanlar:

Arnasoy	59,5	8,7	32,3	18,5
Baxmal	141,4	11,7	54,8	74,9
G‘allaorol	207,2	11,0	115,9	80,3
Sharof Rashidov	621,1	36,4	498,5	86,2
Do‘stlik	149,2	14,0	76,2	59
Zomin	475,2	129,0	266,7	79,5
Zarbdor	112,4	2,6	57,0	52,8
Mirzacho‘l	53,4	4,9	22,6	25,9
Zafarobod	71,0	23,0	20,7	27,3
Paxtakor	206,6	25,4	137,0	44,2
Forish	203,1	10,8	152,9	39,4
Yangiobod	22,5	2,9	10,8	8,8



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 765,3 mlrd so‘mni tashkil qildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 169,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 13,0 % ga yetdi.



\*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd so'm)

Faoliyat turlarining nomi	Yanvar-sentabr					
	2023 yil	Umumiy hajmga nisbatan % da	2024 yil	Umumiy hajmga nisbatan % da	2025 yil	Umumiy hajmga nisbatan % da
<b>Jami</b>	<b>10 566,0</b>	<b>100,0</b>	<b>17 391,0</b>	<b>100,0</b>	<b>18 711,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>						
qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligi	900,8	8,5	1 964,3	11,3	3 815,6	20,4
tog'–kon sanoati	1 272,7	12,0	1 039,5	6,0	516,0	2,8
ishlab chiqarish sanoati	4 454,2	42,2	8 063,8	46,4	5 579,5	29,8
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	307,8	2,9	2 872,6	16,5	4 751,0	25,4
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	418,6	4,0	175,7	1,0	296,8	1,6
qurilish	399,3	3,8	235,5	1,4	874,9	4,7
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	430,2	4,1	203,6	1,2	185,2	1,0
tashish va saqlash	112,5	1,1	40,1	0,2	658,8	3,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	33,2	0,3	185,4	1,1	53,4	0,3
axborot va aloqa	189,8	1,8	65,4	0,4	37,6	0,2
moliyaviy va sug'urta faoliyati	10,5	0,1	54,1	0,3	51,6	0,3
professional, ilmiy va texnik faoliyat	322	3,0	145,9	0,8	403,1	2,2
ta'lim	104,2	1,0	184,4	1,1	150,0	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	98,1	0,9	157,4	0,9	201,8	1,1
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	509,4	4,8	471,0	2,7	875,2	4,7
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	42,7	0,4	40,7	0,2	25,7	0,1
boshqa faoliyat turlari	960,0	9,1	1 491,6	8,5	235,2	1,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligida 3 815,6 mlrd so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 20,4%), tog'-kon sanoatida – 516,0 mlrd so'm (2,8 %), ishlab chiqarish sanoatida – 5 579,5 mlrd so'm (29,8%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 4 751,0 mlrd so'm (25,4 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 296,8 mlrd so'm (1,6%), qurilishda – 874,9 mlrd so'm (4,7 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 185,2 mlrd so'm (1,0 %), tashish va saqlashda – 658,8 mlrd so'm (3,5 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 53,4 mlrd so'm (0,3%), axborot va aloqada 37,6 mlrd so'm (0,2%), moliyaviy va sug'urta faoliyatida 51,6 mlrd so'm (0,3%), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 403,1 mlrd so'm (2,2 %), ta'limda – 150,0 mlrd so'm (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 201,8 mlrd so'm (1,1 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 875,2 mlrd so'mlik (4,7 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 14 654,5 mlrd so'mni yoki 2024 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,2 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.

### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi 2025- yil yanvar-sentabr

Investitsiya turlari	Umumiy hajmi (mlrd so'm)	Shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
<b>Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar</b>	<b>14 654,5</b>	<b>467,2</b>	<b>14 187,3</b>
shu jumladan:			
davlat	467,2	467,2	-
nodavlat	14 187,3	-	14 187,3


Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlari 96,8 % ga tug'ri keladi.

**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan  
korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar,  
1-oktabr holatiga, birlikda**

	Shu jumladan:		o‘tgan yilga nisbatan, foizda
	2024 yil	2025 yil	



<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 285</b>	<b>1 189</b>	<b>92,5</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	498	475	95,4
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	32	38	118,8
Baxmal	54	44	81,5
G‘allaorol	101	87	86,1
Sharof Rashidov	187	199	106,4
Do‘stlik	37	31	83,8
Zomin	102	90	88,2
Zarbdor	67	43	64,2
Mirzacho‘l	31	25	80,6
Zafarobod	26	26	100,0
Paxtakor	77	73	94,8
Forish	50	42	84,0
Yangiobod	23	16	69,6




Yuqoridagi jadvalda viloyat bo‘yicha qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamayganligini ko‘rish mumkin.


## Qurilish ishlari 2025- yil yanvar-sentabr

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.


### Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish hajmlarining ulushi



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



## Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 35,5 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 % ga kamaydi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 21,7 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga ko'paydi.

Boshqa sohalarda xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 38,5 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 % ga ko'paydi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar bo'yicha yuqori ulushga ega tumanlar




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tog'-kon sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 3,7 % ga kamaydi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi boshqa sohalarda hissasiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 38,5 % ni tashkil qildi va 2024 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 9,4 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish sanoatida esa – 52,7 % ni tashkil qilib, 17,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi**



**Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi**



**2025- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining shahar va tumanlar kesimida ifodalanishi**

	<i>Investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga boshiga (ming so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>18 711,4</b>	<b>102,1</b>	<b>12 082,0</b>	<b>100,1</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	3155,5	79,6	15 675,8	78,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	926,8	202,7	18 647,1	199,7
Baxmal	405,4	61,3	2 308,5	60,2
G‘allaorol	2 244,3	109,0	11 689,1	107,1
Sharof Rashidov	2 562,4	70,0	10 196,7	68,4
Do‘stlik	554,7	111,0	7 780,0	109,5
Zomin	625,3	38,5	3 371,0	37,7
Zarbdor	440,2	119,7	4 528,9	117,6
Mirzacho‘l	977,0	132,9	17 261,9	131,2
Zafarobod	658,4	63,4	12 014,1	62,5
Paxtakor	665,8	144,2	8 031,8	141,8
Forish	4 638,0	171,1	46 287,4	168,8
Yangiobod	857,6	833,6	28 300,4	824,9

**Ijtimoiy soha obyektlarini qurish**

Uy–joy qurilishida 875,2 mlrd so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 4,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

Obyekt turlari	Barcha manbalar hisobidan			
	2025 yil yanvar-sentabrda foydalanishga topshirildi		2024 yil yanvar-sentabrda foydalanishga topshirilgan	
	jami	shu jumladan: qishloq joylarda	jami	shu jumladan: qishloq joylarda
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	434,0	186,8	110,2	106,8
<i>undan:</i> <i>yakka tartibdagi uy-joylar</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	434,0	186,8	110,2	106,8
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni	1680	-	-	-
Suv tarmoqlari, km	203,1	161,2	189,1	179,9
Gaz tarmoqlari, km	10,0	6,1	61,0	73,5

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 434,0 ming kv. m bo'lgan 1 647 ta uy-joy (2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,2 %), shu jumladan qishloq joylarida 186,8 ming kv.m (106,8 %) maydonga ega 779 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 203,1 km suv tarmoqlari (shundan, 161,2 km qishloq joylarda) va 10,0 km gaz tarmoqlari (6,1 km qishloq joylarda) ishga tushirildi. Mos ravishda suv tarmoqlari qurilishiga 161,5 mlrd so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 4,6 mlrd so'm (2,8 %) va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 34,8 mlrd so'm (21,5%) hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 122,1 mlrd so'm (umumiy hajmning 75,7 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,7 mlrd so'm to'liq aholi mablag'lari (umumiy hajmning 100%) hisobidan o'zlashtirildi.

## Qurilish faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 880,0 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘rish sur‘ati 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ni tashkil etdi.

### Mulchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi,


*mlrd so‘mda*

	yanvar-sentabr		
	2023- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>3 944,5</b>	<b>4 841,8</b>	<b>5 880,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
davlat	10,0	227,7	458,3
nodavlat	3 934,5	4 614,1	5 421,7


Mulchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 5 421,7 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 92,2 % ni tashkil qildi.

### Mulchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)

**2024 yil yanvar-sentabr**



**2025 yil yanvar-sentabr**



■ Davlat mulki

■ Nodavlat mulki

## Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 75,7 % i binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 17,8 % i fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,6 % i ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 76,9 % i yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash ishlariga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida viloyat bo‘yicha jami qurilish ishlarida nodavlat sektorning hajmi 5 421,7 mlrd so‘m, ulushi 92,2 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 76,9 % i yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga, 23,1 % i esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.

### 2025 yilning yanvar-sentabr oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd so‘mda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 75,7 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi,  
yanvar-sentabr oylarida

2024 yil

2025 yil

78,6 %



Bino va inshootlar  
qurilishi

75,7%



Bino va inshootlar  
qurilishi

15,0 %



Fuqarolik obyektlari  
qurilishi

17,8 %



Fuqarolik obyektlari  
qurilishi

100,0  
%

6,4%



Ixtisoslashgan  
inshootlar qurilishi

6,5 %




Ixtisoslashgan  
inshootlar qurilishi

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,5 % ulush to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

**2025 yil yanvar-sentabr oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda**



Yirik pudrat korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari o'tgan yilga nisbatan 69,1 % ga o'sdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlarning o'sish sur'ati 107,1 % ni, norasmiy sektorni esa 125,3 % ni tashkil qildi.